



IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNING JALB ETISH VA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISHNI ASOSIY JIHATLARI

PhD Shadibekova Dildor Abduraxmanovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0000-0002-9890-1573
d.shadibekova@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy investitsiyalarning ahamiyati va ularni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan bo'lib, statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada milliy iqtisodiyotga jalb qilingan investitsion loyihalarni samarali boshqarishdagi mavjud muammolar va ularni oldini olishni faollashtirishda qanday chora-tadbirlardan foydalanish kerakligi keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, xorijiy investitsiya, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya, investitsion loyiha, investor, kapital eksporti, investitsion loyihalarni samarali boshqarish, eksport, import.

ОСНОВНЫЕ АСПЕКТЫ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКУ И УПРАВЛЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПРОЕКТАМИ

PhD Шадибекова Дилдор Абдурахмановна
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В этой статье анализируется важность иностранных инвестиций и их роли в развитии национальной экономики и анализируется на основе статистических данных. Также в статье широко освещены существующие проблемы эффективного управления инвестиционными проектами, задействованными в национальной экономике, и какие меры следует использовать для предотвращения их.

Ключевые слова: инвестиция, иностранные инвестиции, прямые иностранные инвестиции, портфельные инвестиции, инвесторы, экспорт капитала, управление инвестиционными проектами, экспорт, импорт.

THE MAIN ASPECTS OF ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS INTO THE ECONOMY AND MANAGING INVESTMENT PROJECTS

PhD Dildor Shadibekova Abdurakhmanovna
Tashkent State University of Economics

Abstract. This article analyzes the importance of foreign investment and its role in the development of the national economy, which is analyzed based on statistical data. Also, the article extensively covers existing problems in the effective management of investment projects involved in the national economy and what measures should be used to activate their prevention.

Key words: investment, foreign investment, direct foreign investment, portfolio investment, investor, capital exports, charter capital, effective management of investment projects export, import.

Kirish.

Bugungi kunda rivojlangan investitsion faoliyatning yo'lga qo'yilishini hukumatimizning yuritayotgan oqilona investitsiya siyosatining mahsuli ekanligini ta'kidlash lozim. Albatta, kuchli investitsiya siyosatini o'tkazish orqaligina biz o'z iqtisodiyotimizni yanada gullab yashnatishimiz mumkin. Bunda xorijiy investitsiyalarning o'rni katta hisoblanadi.

So'nggi yillarda iqtisodiyotni erkinlashtirish, qulay investitsiya muhitini yaratish, tadbirkorlar uchun imkoniyatlarni har tomonlama kengaytirishni asosida iqtisodiyotimiz qariyb ikki barobar o'sdi. O'tgan yil yakuni bo'yicha bu o'sish 6 foizni tashkil qildi. Inflyatsiya 9 foizgacha pasaydi. Savdo aylanmasi ko'rsatkichlari muttasil oshmoqda. Valyuta bozori va oltin-valyuta zaxiralari barqarorligi saqlab qolinmoqda.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda 60 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi. Xalqaro moliya institutlarining 14 milliard dollardan ortiq mablag'lari ijtimoiy va infratuzilma sohasiga jalb qilindi (Mirziyoyev, 2024).

Hozirgi kundagi dolzarb masala - nafaqat investitsiyalari jalb etish, balki ushbu investitsion loyihalarni boshqarishni to'g'ri tashkil qilishdan iborat.

Tez o'zgaruvchan biznes muhiti va raqobat sharoitida loyihani boshqarish har qanday tashkilotning samarali faoliyati asosiy elementlaridan biridir. Loyihalarni boshqarish ko'plab kompaniya va tashkilotlar faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, yillar davomida faol qo'llanib kelmoqda. Jahon amaliyotida loyihalarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri – loyiha yoki tashkilot doirasida muayyan loyiha yoki vazifa uchun eng samarali yondashuvni tanlash imkonini beruvchi turli metodologiya va yondashuvlardan foydalanish qobiliyatidir. Jahon iqtisodiyotida loyihalarni boshqarish yangi metodologiya va texnologiyalarning paydo bo'lishi tufayli, rivojlanish va takomillashishda davom etmoqda. Bundan tashqari, jahon amaliyotida loyihalarni boshqarish turli sohalarda, jumladan, IT, qurilish, ishlab chiqarish, marketing va boshqa ko'plab sohalarda keng qo'llanilayapti, bu uning zamonaviy dunyoda ahamiyati va dolzarbligidan dalolat beradi.

Loyihani boshqarish — bu muayyan natijalarga erishish uchun loyiha ishini rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish jarayoni (Farmon, 2019). Bu korxonalar uchun mahsuldorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va ish sifatini yaxshilash uchun muhim vositadir. Loyihani boshqarish, shuningdek, loyihani amalga oshirish vaqtini nazorat qilish va xavflarni minimallashtirish imkonini beradi. IT-loyihalarida loyihalarni boshqarish, ayniqsa, muhimdir, chunki bu sohada natijaga ta'sir qiladigan ko'plab omillar mavjud. Bu esa jamoa ishini boshqarish, jarayonlarni optimallashtirish, xatarlarni boshqarish va loyihani belgilangan muddatlarda va byudjet doirasida saqlashni ta'minlaydi.

Adabiyotlar sharhi.

1998 yil 30 aprelda qabul qilingan "Chet el investitsiyalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasida "Chet el investorlari asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob'ektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari deb e'tirof etiladi" (Qonun, 1998). Xorijiy investitsiyalarning umumiy ta'rifi F. Xeniusning 1947 yil AQShda chop etilgan tashqi savdo lug'atining 2-nashrida quyidagicha berilgan: "Xorijiy investitsiyalar – bu bir mamlakat hududidan ikkinchi mamlakat hududiga kiritilgan, eksport qilingan investitsiyalar" (Xenius, 2015). Bundan tashqari, professor G'ozibekovning (2003) xorijiy investitsiyalar to'g'risidagi nazariy qarashlarida quyidagi fikrlar bayon etilgan: "Chet el investitsiyalari bir iqtisodiyot subyekti kapitalini o'zga iqtisodiyotga muayyan muddatga bog'lash bo'lib, ichki investitsiyalardan risklar kengligi bilan farqlangan holda, huquqiy sharoitlarning, investitsiya muhitining o'zgarishi bilan tavsiflanadi va natijada mamlakatlar va mintaqalar bo'ylab kapital ko'chishi yuz beradi". Ushbu fikrlardan shunday xulosa qilish

mumkinki, xorijiy investitsiyalar bir mamlakat iqtisodiyotidan mutloq boshqa davlat iqtisodiyotiga ko'chuvchi kapital bo'lib, u risklar doirasi kengligi bilan ichki investitsiyalardan farqlanadi. Shuningdek, iqtisod fanlari doktori Qo'ziyevaning (2008) ilmiy ishlarida xorijiy investitsiyalarning mohiyati to'g'risida: "Kelgusida foyda olish maqsadida kapitalni eksport qiluvchi xorijiy davlatlar, yuridik va jismoniy shaxslarning kapitalni qabul qiluvchi mamlakatlarga turli ko'rinishdagi boyliklar (ko'char, ko'chmas mol-mulk, intellektual boyliklar va boshqalar) va ulardan olingan daromadlar (foйда, foizlar, dividendlar, litsenziya va komission mukofotlar, royalti, texnik ta'minot va boshqa mukofotlar)ni qo'yilishiga xorijiy investitsiyalar deyiladi" degan ta'rif keltirilgan. Olimaning fikricha, xorijiy investitsiyalarni turli belgilariga asoslangan holda tasniflash ularning iqtisodiy mohiyatini yanada oydinlashtiradi. Fozilchayev va Xidirovlarning (2017) "Investitsiya va lizing asoslari" kitobida xorijiy investitsiyaga quyidagicha ta'rif keltirilgan: "Xorijiy investitsiyalar — bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklaridir".

Xorijlik olimlardan Kaplan, Norton (2004) asarlarida strategik boshqaruv tizimida korxonaning samaradorligini oshirish va iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish masalalari keng yoritilgan. Bu olimlarning qarashlarida asosiy e'tibor, strategik boshqaruv tizimini korxonada va tashkilot uchun asosiy xususiyatlarini, uning samaradorligini baholashga qaratilgan. Ansoffning (1989) qarashlarida strategik boshqaruv tizimida korxonaning istiqbollari o'rganish va ularga ta'sir qiluvchi omillarni baholash muhim o'rin tutadi. Uning e'tiborida korxonada doim risk bilan ishlashi, uning uzoq muddatli faoliyati uchun prognozlar tuzish, ekstrapolyatsiya usulini qo'llash zarur. Porter (1993) qarashlarida kompaniyalarning rivojlanishida innovatsiyalarning o'rni, ularni qo'llash xususiyatlari, kompaniyaning barqaror rivojlantirilishiga faqat innovatsiyalarni doimiy ravishda joriy etish hamda kompaniyalarning raqobat ustunligiga erishishlarida innovatsiyaning ta'siri masalalari tadqiq etilgan.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati katta bo'lib, u quyidagilar bilan izohlanadi: birinchidan, ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi; ikkinchidan, import o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustivor sohalariga yo'naltirish va pirovardida aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi; uchinchidan, kichik biznesni, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi; to'rtinchidan, korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi; beshinchidan, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga ko'maklashadi, davlat byudjetiga soliq tushumining kelib tushishi ko'payadi. Xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotga keng miqyosda jalb etish o'tish davrining strategik va joriy vazifalarini hal etish zaruriyati bilan bog'liq. Ushbu vazifalarni bajarish natijasida o'tgan yillarda investitsiyalarning o'sishi jadallashdi.

"O'zbekiston iqtisodiy o'sishining asosiy tamoyillaridan biri bu respublika hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy holatini chuqur tahlil qilish natijalariga asoslangan hududiy rivojlanishning keng miqyosda va parallel ravishda amalga oshirilishi hisoblanadi. Bunda hududlarning resurs bazasi, ishlab chiqarish, transport-logistika salohiyati yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan turli xil mahsulotlarga talab o'rganiladi".

Tahlil natijalariga ko'ra, har yili O'zbekiston Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining muvofiqlashtiruvchi va ko'magi ostida amalga oshiriladigan hududiy investitsiya dasturlari (HID) shakllantirildi va Hukumat komissiyasining qarori bilan tasdiqlanadi. Yangi imkoniyatlarni aniqlashni hisobga olgan holda, loyihalar ro'yxati yil davomida kengaytirib boriladi.

O'zbekistonda ishlab chiqarish hajmini oshirish, mahsulot eksport qilish va aholini ish bilan ta'minlash imkonini beruvchi 7,5 mingdan ortiq mintaqaviy investitsiya loyihasini 2024 yilda amalga oshirish rejalashtirilgan.



1-rasm. 2023-2024 yillarda O'zbekiston hududiy investitsiya dasturlari

Manba: O'z R Statistika qo'mitasi ma'lumotlari (swww.stat.uz).


"HID doirasida umumiy qiymati 11,6 milliard AQSh dollari bo'lgan 7656 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. O'tgan yili deyarli ikki baravar ko'p, ya'ni 14120 ta loyiha amalga oshirildi, ularning umumiy qiymati 8,3 milliard dollarni tashkil qildi (Swift News, 2024).

2023 yilda sanoat sohasida amalga oshirilgan loyihalar ulushi 31,3 foizni (4419 ta loyiha), xizmat ko'rsatish sohasida 52,7 foizni (7437 ta loyiha), qishloq xo'jaligi sohasida 16 foizni (2264 ta loyiha) tashkil etdi. 2024 yilda ur'u biroz boshqacharoq: qishloq xo'jaligi 12,3 foiz (945 ta loyiha) va xizmatlar 50,1 foiz (3904 ta loyiha) ulushining biroz qisqarishi hisobiga ishlab chiqarish 36,6 foizgacha (2807 ta loyiha) oshadi.

Loyiha qiymati bo'yicha 2024 yilda, o'tgan yilgidek birinchi uchlikka Samarqand (1,4 milliard dollar), Qashqadaryo (1,23 milliard dollar) va Namangan (976 million dollar) viloyatlari kiradi.

"Loyiha tashabbuskorlari ko'proq harakat qilishlari kerak bo'lgan hududlar bor, masalan, Namangan (yanvar oyida 5 ta loyiha), Navoiy (12) va Buxoro (17) viloyatlari, ammo, ishonch bilan aytish mumkinki, HID loyihalarini amalga oshirilishi, ishlab chiqarish va eksport hajmini sezilarli darajada o'sishi hamda mamlakatimizning barcha hududlarida 220 mingdan ortiq kishini ish bilan ta'minlash imkonini beradi.


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 y 92-son O'zbekiston respublikasining 2024-yil I-choragiga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida qarori (15.02.2024) bilan 2024-yilda tijorat banklari tomonidan xorijiy kredit resurslarini jalb qilishning maqsadli ko'rsatkichlari va manzilli ro'yxati tasdiqlandi.



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi asosiy kapitalidagi investitsiyalar markazlashtirilmagan moliyalashtirish manbalari ulushi hisobiga, % da

Manba: O‘z R Statistika qo‘mitqsi ma‘lumotlari.

Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlar va o‘shish sur‘atlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan qayd etildi va bu ko‘rsatkich 2023-yilning shu davriga nisbatan 258,0 foizni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-mart oylarida korxonalar va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan asosiy kapitalga yo‘naltirilgan 18,8 trillion so‘m yoki ularning umumiy hajmining 17,6 foizi o‘zlashtirildi. Aholi mablag‘lari hisobidan 6,9 trillion so‘m yoki 6,5 foizi o‘zlashtirildi.



3-rasm. Asosiy kapitalidagi investitsiyalar moliyalashtirish manbalari ulushi hisobiga, % da

Manba: O‘z R Statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan 33,3 trillion so‘m o‘zlashtirildi, bu 2023-yilning shu davriga nisbatan 10,1 foiz bandga ko‘p yoki ularning umumiy hajmining 31,1 foizini tashkil etadi.

Shu bilan birga, bank kreditlari va boshqa jalb qilingan mablag‘lar hisobidan 5,2 trillion so‘m (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmidan 4,8 foiz), O‘zbekiston

Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan 5,2 trillion so‘m (4,8 foiz) o‘zlashtirildi.

Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar – 35,3 trillion so‘m (33,0 foiz), Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi – 0,4 trillion so‘m (0,4 foiz), Respublika byudjeti – 1,7 trillion so‘m (1,6 foiz), Suv xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari. Ta‘minot va kanalizatsiya tizimlari – ularning umumiy hajmidan 0,2 trln.so‘m (0,2%).



4-rasm. O‘zbekiston Respublikasi mintaqaviy investitsiya dasturlari

Manba: O‘z R Statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari

Yuqoridagi rasm ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasi mintaqaviy investitsiya dasturlarida xizmatlar ulushi 52,7 foizdan 50,1 foizga tushgan bolsa, sanoat ulushi 31,3 foizdan 36,6 foizga ko‘tarilgan qishloq ho‘jaligi ulushi 16,0 foizdan 12,3 foizga tushgan.

Hozirgi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar oqimining jadal sur‘atlarda o‘shishini quyidagi omillar belgilab bermoqda: 1) mamlakatdagi investitsiya muhitining barqarorligi; 2) valyuta kursini tartibga solishdagi ijobiy o‘zgarishlar; 3) mamlakatning soliq mexanizimini takomillashtirishning aniq yo‘nalishlari belgilanganligi; 4) soliq qonunchiligida xorijiy investitsiyalarning faoliyatini tartibga soluvchi qaror va qonunlarning ishlab chiqilganligi; 5) jahon tovar bozorlaridagi eksportyorlar uchun qulay narx konyukturasining vujudga kelganligi. 6) Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlari va sohalarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida bir hecha mingdan ortiq korxonalar muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Shuni ta‘kidlash kerakki, investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilishda 2024 yil may oyida ytkazilgan III Xalqaro investitsiya Forum katta o‘rin tutadi. O‘zbekistonda III Xalqaro investitsiya forumida 93 mamlakatdan 2,5 mingdan ortiq delegatni jamladi va global muloqot va investitsiyaviy sohadagi ilg‘or tajriba almashish maydoniga aylandi.

Forum yakuniga ko‘ra jami qiymati \$26,6 mlrd.ga teng kelishuvlar imzolandi. Ma‘lumot uchun: 2023 y. Toshkent Xalqaro investitsiya forumida da \$11 mlrd. 167 ta hujjat imzolangan.

Xususan quyidagi yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi:

- “Data Volt” kompaniyasi (Saudiya Arabistoni) bilan hamkorlikda “Yangi Toshkent” da shahar infratuzilmasini qurish (\$1 mlrd.) va yashil texnologiyalarga asoslangan “ma‘lumotlar markazlarini” qurish (\$3 mlrd.);

- “Acwa Power” kompaniyasi (Saudiya Arabistoni) bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasida quvvati 5 GVt shamol elektr stansiyasini hamda quvvati 2 GVt bo‘lgan elektr energiyasini saqlash qurilmalarini qurish (\$6,2 mlrd.);

- “Amea Power” kompaniyasi (BAA) bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasida quvvati 1000 MVt bo‘lgan shamol elektr stansiyasini qurish (\$1,1 mlrd.);

- “Saudi Tabrid” kompaniyasi bilan Nukus, Farg‘ona va Quvasoy shaharlarida issiqlik tizimini modernizatsiya qilish (\$750 mln.);

- “Nil Sugar” kompaniyasi (Misr) bilan Jizzax viloyatida qand lavlagi yetishtirish va shakar ishlab chiqarish (\$500 mln.);

- “Shaynxay Knud Interneshnl” kompaniyasi (Xitoy) bilan Namangan viloyatida tekstil va to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish (\$205 mln.);

- “Vilmar Interneshnl” kompaniyasi (Singapur) bilan Toshkent viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari va chorva uchun ozuqa ishlab chiqarish (\$200 mln.).

Bundan tashqari, forumda dunyoning bir qator yirik kompaniyalari hisoblangan “Oraskom Investment” (Misr), “Bonafarm Grup” (Vengriya), “Sayar” (AQSH), “Goldvind”, “Sinoma” (Xitoy), “Sam Yapi” (Turkiya), “Pasha Development” (Ozarbayjon) “Laselsberger” (Avstriya), “Petrosat Chexelsoton” (Eron) kabi kompaniyalar bilan qiymati \$6,6 mlrd. teng yangi investisiya loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

Kiritilayotgan xorijiy investitsiya loyihalarini samarali boshqarish endilikda dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Korxonalarining investitsion loyihalarini boshqarish bo‘yicha kamchiliklar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: — boshqaruv tizimining tavakkalchilik xavfiga bo‘lgan munosabatida tavakkal investitsion loyihalarga qiziqishning kamligi; — boshqaruv tizimida tavakkalchilik xavfini kamaytirish mexanizmining mavjud emasligi. Bunday holatlarni aynan investitsion loyihalarni boshqarish tizimida tavakkalchilik xavfini boshqarish masalalarining keng yoritilmaganligi bilan izohlash mumkin.

Bizning fikrimizcha, noaniqlik sharoitida investitsion loyihalarni boshqarish tizimini shakllantirish quyidagi muammo va vazifalarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lishi lozim:

-investitsion loyihalarni boshqarish faoliyatining maxsus xususiyatlarini tahlil qilish va aniqlash;

— investitsiya, innovatsiya va tavakkalchilik xavfini boshqarishning zamonaviy nazariya va amaliyotida qo‘llanilayotgan metodologiyalarning tahlili asosida innovatsion loyihalarni boshqarish muammolarini aniqlash;

- korxonalarda, investitsion loyihalarni boshqarish tizimini yaratishda bu tizimning asosiy tarkibi sifatida tavakkalchilik xavfini boshqarish mexanizmlarini yaratish;

- investitsion tavakkalchilik xavfi tushunchasi va noaniqlik tushunchasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashtirish;

- investitsion loyihalarni joriy qilish jarayonida, tavakkalchilik xavfini inobatga olgan holda tavakkalchilik xavflarini mustaqil klassifikatsiyalash (tasniflash) tizimini yaratish;

- bartaraf qilib bo‘lmaydigan noaniqlik muhitida tavakkalchilik xavfini optimallashtirish masalasiga qaratilgan innovatsion loyihalarni boshqarish tizimining konsepsiyasini yaratish;

- investitsion loyihalar tavakkalchilik xavflarini boshqarishning kompleks funktsiya, vazifalarini aniqlash va tavakkalchilik xavfini boshqarish uslublarini yaratish;

- investitsion faoliyat yuritish sharoitida tavakkalchilik xavfini boshqarish texnologiyalarini yaratish;

- tavakkalchilik xavfi turlariga qarab investitsion loyihalarni boshqarish dasturini tuzish metodikasini yaratish.

Xulosa va takliflar.

Mamlakatimizga xorijiy sarmoyalarni jalb etayotgan korxonalarni iqtisodiy rag‘batlantirish va ular uchun zarur sharoitlarni yaratib berish o‘ta muhim masalalardan biri

hisoblanadi. Shuning uchun ham milliy iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

birinchidan, inflyatsiya darajasini investitsion loyihalar qiymat o'sishiga ta'sirini kamaytirish, shuningdek, xorijiy investitsiyalar hajmini yanada ko'paytirish;

ikkinchidan, investitsiyalarni real ishlab chiqarish sohasiga, ya'ni xomashyoni qayta ishlovchi tarmoqlarga jalb etish;

uchinchidan, xorijiy iqtisodiy sub'ektlar bilan o'zaro manfaatli loyihalarni amalga oshirish tizimini takomillashtirish va ular bilan erkin investitsion iqtisodiy zonalarini tashkil etish;

to'rtinchidan, infratuzilmasi mavjud va rivojlanishi qulay bo'lgan joylarga investorlarni jalb qilish orqali sanoatni tizimli rivojlantirish;

beshinchidan, uzoq muddatli, past foizli to'g'ridan-to'g'ri xorijiy kredit resurslarini jalb etish ishlarini kuchaytirish.

Investitsion loyihaning maqsadiga erishish uchun quyidagi omillarni hisobga olish kerak:

- ✓ Maqsad va vazifalarni aniq belgilash.
- ✓ Loyiha rejasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish.
- ✓ Loyihani har tomonlama o'z vaqtida baholash va nazorat qilish.
- ✓ Vakolatli mutaxassislarni jalb qilish va ulardan foydalanish.
- ✓ Jamoani tashkil qilish, unga ko'rsatmalar berish va erishilgan natijalar uchun mukofotlash.

Mos metodologiyani tanlash: Turli loyihalari uchun mos metodologiyalarni tanlash va ulardan samarali foydalanishni ta'minlash zarur. IT loyihalari uchun Agile, infratuzilma loyihalari uchun esa Waterfall metodologiyasini qo'llash tavsiya etiladi.

Kadrlarni o'qitish: Xodimlarini loyiha boshqaruvi bo'yicha muntazam o'qitish va ularning bilimlarini oshirish muhimdir. Loyiha boshqaruvi bo'yicha malakali mutaxassislar loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga katta hissa qo'shadi.

Resurslarni samarali taqsimlash: Loyihalar uchun zarur bo'lgan resurslarni optimal taqsimlash va ulardan samarali foydalanishni ta'minlash kerak. Resurslar taqsimotini loyihaning ehtiyojlariga mos ravishda amalga oshirish zarur.

Risklarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish: Har bir loyiha uchun risklarni boshqarish rejalarini ishlab chiqish va ularni muntazam yangilab borish tavsiya etiladi. Risklarni oldindan aniqlash va ularni boshqarish choralari ko'rish loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga yordam beradi.

Texnologik yangiliklardan foydalanish: Loyihalarini boshqarishda zamonaviy texnologik vositalar va dasturlarni qo'llash samaradorlikni oshiradi. Loyiha boshqaruvi uchun maxsus dasturiy ta'minotlardan foydalanish jarayonlarni optimallashtirishga yordam beradi.

Doimiy monitoring va hisobot berish: Loyihalarni amalga oshirish jarayonida doimiy monitoring va hisobot berish tizimini yo'lga qo'yish zarur. Bu loyiha progressini kuzatish va zarur bo'lganda tezkor choralari ko'rishga yordam beradi.

loyiha boshqaruvi tizimini yaxshilash orqali resurslarni samarali boshqarish, risklarni kamaytirish va loyihalarni belgilangan muddatlarda va byudjetda yakunlash mumkin bo'ladi.

Shunday qilib, loyihaning yuqori samaradorligiga erishish uchun eng muhimi, loyihaning vazifalari va maqsadlarini to'liq va aniq tushunishni ta'minlaydigan sifatli tahlil va moslashtirish, shuningdek, loyihaning samarali ishlashi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish zarur hisoblanadi.

Yuqoridagi takliflarni amaliyotda joriy etish milliy iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni va ulardan samarali foydalanishni yanada faollashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu holat pirovardida ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan uzluksiz yangilab borish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni izchil davom ettirish asosida, kelgusida mamlakatimizda ishsizlikni bartaraf qilib, aholi farovonligini oshiradi.

Adabiyotlar/ Jumepamyra/ Reference:

Ansoffi (1989) *Strategicheskoye upravleniye*. – M.: Ekonomika, – 358 s.

Farmon (2019) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi loyiha boshqaruvi milliy agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5624-son farmoni*.

Fozilchayev Sh.Q., Xidirov N.G'. (2017) *Investitsiya va lizing asoslari. O'quv qo'llanma*. – T.: Moliya, -22 bet.

G'ozibekov D.G'. (2003) *Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari*. – T.: "Moliya", 45 bet.

Kaplan R.S., Norton D.P. (2004) *Organizatsiya, oriyentirovannaya na strategiyu. Kak v novoybiznes-srede preuspevayut organizatsii, primenyayushiyе sbalansirovannuyu sistemу pokazateley/per.sangl.M.: ZAO Olimp-Biznes*. -416 bet.

Mirziyoyev Sh. (2024) *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqi* <https://president.uz/oz/lists/view/7194>, 2024 yil 2 may

Porter M. (1993) *Mejdunarodnaya konkurensiya: Per. s angl./ Pod.red. V.D. Shetinina*. – M. Mejdunarodnie otnosheniya, – 64 s.

Qonun (1998) *"Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni*. 1998 yil 30 aprel. 3-modda.

Qo'ziyeva N.R. (2008) *Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. Iqt. fan. dok. ilm. dar. olish uchun yoz. diss. avtoref*. – T.: BMA, -11 bet.

Swift News (2024) *Swift News elektron portali "O'zbekiston 2024 yilda hududiy investitsiya dasturlari doirasida umumiy qiymati 11,6 milliard dollar bo'lgan 7656 ta loyihani amalga oshirishni rejalashtirmoqda"* [www.Swift News](http://www.SwiftNews)

Xenius F. (2015) *Dictionary of International Trade. Global Marketing Strategies*, p.82.